

## Mehnat qonunlariga rioya qilish ustidan davlat nazorati

TK РФ 353 va 356-moddalariga ko'ra, mehnat qonunlariga rioya qilish yuzasidan nazorat, Davlat mehnat inspeksiyasi va prokuraturaga yuklatilgan.

Xorijiy fuqarolarni ishga yollash vaqtidagi qonunbuzarliklar uchun ish beruvchi tomonni javobgarlikka tortishni Rossiya Federatsiyasi MVD Migratsiya bo'limi o'z zimmasiga oladi.

2 oy yoki undan ko'proq vaqt davomida ish haqi to'lanmagan bo'lsa, siz Rossiya Federatsiyasi Tergov qo'mitasining tergov bo'linmasiga murojaat qilishingiz mumkin: ish haqini to'lash uzoq vaqtga kechikishi, jinoyat hisoblanadi (Уголовный кодекс РФ 145,1-moddasi).

## Sud himoyasi

TK РФ ning 392-moddasiga ko'ra, siz haqingiz buzilganligi to'g'risida bilgan kundan boshlab 3 oy ichida sudga murojaat qilishingiz mumkin. Ishdan bo'shatish bo'yicha nizolar bo'yicha esa, ishdan bo'shatish to'g'risidagi qarorning nusxasini olgan kundan yoki ish daftarchasini qaytarilib bergan sanadan boshlab, 1 oy ichida sudga murojaat qilish huquqiga egasiz.

## ISH IZLASH

[www.trudvsem.ru](http://www.trudvsem.ru) – Rossiyada ishlash: Министерства труда РФ ning Rossiyadagi bo'sh ish joylari bazasi

[www.fms.superjob.ru](http://www.fms.superjob.ru) – ФГУП «Паспортно-визовый сервис» Vakansiyalarining rasmiy bazasi

### СПб ГАУ «Центр трудовых ресурсов»

198207, Россия, Санкт-Петербург, Трамвайный пр., д. 12, к. 2  
тел.: 8 (812) 758-09-27

сайт: [www.spbgauctr.ru](http://www.spbgauctr.ru)

e-mail: [gauctr@rspb.ru](mailto:gauctr@rspb.ru)

Mehnat migratsiyasi bo'yicha savollar uchun:

8 (800) 333-70-97

### СПб ГАУ «Центр занятости населения Санкт-Петербурга»

190000, Россия, Санкт-Петербург, ул. Галерная, д. 7

тел.: 8 (812) 571-00-41

факс: 8 (812) 571-00-27

e-mail: [GAU@rspb.ru](mailto:GAU@rspb.ru)

сайт: [r21.spb.ru](http://r21.spb.ru)

Ish istash masalalari bo'yicha

## MEHNAT HUQUQLARINI HIMOYA QILISH

### Государственная инспекция труда в Санкт-Петербурге

198095, г. Санкт-Петербург, ул. Зои Космодемьянской, д.28-а  
8 (812) 746-59-86

[www.git78.rostrud.ru](http://www.git78.rostrud.ru)

**Прокуратура г. Санкт-Петербурга** (хорijiy fuqarolarning huquqlarini himoya qilish, mansabdor shaxslarning noqonuniy qarorlari va harakatlariga qarshi shikoyat qilish)

190000, Санкт-Петербург, улица Почтамтская, дом 2/9

8 (812) 318-26-34

<http://procspb.ru/>

**Главное Следственное Управление Следственного комитета РФ по г. Санкт-Петербургу** (mehnatga majburlash va ish haqini to'lamagan holda):

190000, Россия, Санкт-Петербург, наб. реки Мойки, 86–88

Ishonch telefonlari: 8 (812) 571-00-40

Ish telefoni: 8 (812) 570-66-71

<http://spb.sledcom.ru/>

**Уполномоченный по правам человека в Санкт-Петербурге** (davlat organlari xodimlari tomonidan chet el fuqarolarining huquqlariga rioya qilishni nazorat qilish)

Щербаков пер., д.1/3 тел. 8 (812) 764-00-54

<http://ombudsmanspb.ru/>

## Jamoat tashkilotlari

**БФ «ПСП-фонд»** (muhojirlarga bepul yuridik yordam) -  
tel. 8 (812) 337-57-85

## FOYDALI AXBOROT XIZMATLARI

Elektron xizmatlar Федеральной службы по труду и занятости

[www.онлайнинспекция.рф](http://www.онлайнинспекция.рф)

[www.rostrud.ru](http://www.rostrud.ru)

### Sankt-Peterburg sudlari

<http://courts.spb.ru/>

[migrantinfo.spb.ru](http://migrantinfo.spb.ru) - “Sankt-Peterburgga xush kelibsiz!” – muhojirlar uchun Xalqaro aloqalar va Sankt-Peterburg shahri-ning migratsiya siyosatini amalga oshirish qo'mitasining internet sahifasi

[migrussia.ru](http://migrussia.ru) - “Muhojirlar va migratsiya. Hududlar aro axborot portali” – migratsiyada yashashga moslashish va huquqiy savollar bo'yicha axborot berish xizmati

**MigrAsia** - muhojir ishchilar va ularning oila a'zolari - CHF va EAЭС fuqarolari uchun mobil ilova (Android uchun).



БФ «ПСП-ФОНД»

**SANKT-PETERBURGGA  
XUSH KELIBSIZ!**



**ISHGA JOYLASHISH VA  
MEHNAT HUQUQLARI**

muhojir ishchilarga  
yordamchi yo'riqnom

Буклет разработан БФ «ПСП-фонд»  
Автор-составитель: Якимов А.Н.

2017  
2018

Agar siz Rossiyaga ishlagani kelgan bo'lsangiz, xatarlardan o'zingizni himoya qila olishingiz uchun, o'zingizning huquqlaringizni va mas'uliyatlaringizni bilishingiz kerak.

### Quyidagi oddiy maslahatlar sizga ishga joylashishda yordam beradi:

- **Qonun bo'yicha ishlang:** noqonuniy ishlash jiddiy jinoyatdir. Ish beruvchi bilan mehnat munosabatlari mehnat yoki fuqarolik-huquqiy shartnomasi bilan tasdiqlanishi kerak;
- **O'zingizning huquqlaringizni biling:** sizning qo'lingizda mehnat yoki fuqarolik huquqi shartnomasining nusxasi bo'lishi kerak, ish haqini o'z vaqtida olishingiz kerak. Mehnat shartnomasi asosida ishlasangiz, dam olish, ta'tilga chiqish va kasallik varaqchasi asosida haq olish huquqiga egasiz;
- **Ish beruvchi tomon haqida ma'lumotga ega bo'ling:** Siz ishlayotgan kompaniya nomini va manzilini, bevosita rahbarning kontaktini (ismini-sharifi va telefon raqamini) bilishingiz kerak;
- **Vositachilar bilan aloqa qilmang:** ehtiyot bo'ling - vositachilar sizdan bepul mehnat ishchisi sifatida foydalanishlari mumkin;
- **Ish haqi miqdori va to'lov shartlarini ochiq muhokama qiling:** Sizga qaysi ish uchun qancha pul to'lashlarini bilishingiz kerak, bu shartnomada ham ko'rsatilishi kerak. Sizning bank kartangiz yoki buxgalteriya bo'limi orqali shaxsan, imzo qo'yib pul olishingiz kerak. Siz buxgalterlik bo'limida hisob varaqchasini olishingiz mumkin. Agar sizga pul qarz bo'lishsa, boshligingizdan tilxat yozdirib olib, saqlab qo'ying;
- **Siz imzo qo'ygan har bir narsani diqqat bilan o'qing, nusxasini ham olib qo'ying:** Agar ularning mazmuni va shartlariga rozi bo'lmasangiz, siz hujjatlarga imzo qo'ymaslikka haqlisiz. Agar qog'oz sizga shaxsan tegishli bo'lsa, nusxasini olishingiz kerak;
- **Ishxonangizga hujjatlarinigizni bermang:** hech kimda kafolat sifatida pasportingizni, ish patentingizni, sug'urtangizni, ish shartnomasining sizdagi nusxasini olishga, joylarga borish erkingizni cheklashga, telefoningizni olib qo'yishga haqqi yo'q. Pasportni olib qo'yish va ozodlikni cheklashlari jiddiy jinoyatdir, bunday hollarda politsiya bilan bog'laning!
- **Yordam olish uchun ariza yozing:** ish beruvchi tomonidan qonun buzilgan hollarda, sizga militsiya, prokuratura, Ombudsman, Davlat mehnat inspeksiyasi, sud va jamoat tashkilotlari yordam beradi.

## MEHNAT HUQUQLARINGIZNI QANDAY HIMOYA QILISH KERAK

### Ish huquqlaringizni himoya qilish

Ishlovchi bilan mehnat shartnomasi ishchi ishga qabul qilingan kundan boshlab, 3 kun ichida yozma shaklda tuzilishi kerak. Mehnat munosabatlari muhojirlarining ishini boshlagan kundan boshlanadi (TK PΦ, 67-moddasi).

Ish beruvchi 5 kundan ortiq vaqt davomida ishlagan har bir ishchi uchun mehnat daftarchasini ochishi kerak (TK PΦ, 66-moddasi).

Ishga qabul qilish ish beruvchining buyrug'i bilan rasmiylashtiriladi. Boshchingizdan sizni ishga joylashganingiz haqidagi buyruqning bir nusxasini so'rab olishga haqlisiz (TK PΦ, 68-moddasi).

Ish beruvchi shartnoma tuzilmay turib, ishchi qilgan ishi va ishlagan vaqti uchun haq to'lashi shart (TK PΦ 67.1 moddasi).

### Qo'shimcha ishdan himoya qilish

Qo'shimcha mehnat, bu - ishxonaning o'z xodimlarini, shartnoma tuzmasdan boshqa tashkilotlarga ishlagani yuborishidir. Qonunda bunday harakat taqiqlanadi (TK PΦ 56.1 moddasi).

Faqatgina xususiy ish beruvchi agentliklar o'z xodimlarini boshqa tashkilotlarga yoki shaxslarga ishlagani jo'natishlari mumkin, bunday hollarda ular quyidagilarni qilishlari kerak:

- mehnat shartnomasida uchinchi shaxs bilan ishlash imkoniyatini ko'rsatish;
- uchinchi shaxs ishga yuborilgan barcha hollarda, xodim bilan qo'shimcha bitim tuzadi.

Agar siz xususiy ish bilan shug'ullanadigan agentlikka murojaat qilsangiz, bu shartlar shartnomada ko'rsatilganligiga ishonch hosil qiling.

### Noqonuniy ishdan bo'shatilishdan himoya qilish

TK PΦ ning 76-moddasi bo'yicha, sababini izohlamasdan ishchi bilan ishni to'xtatish taqiqlanadi. Ishdan bo'shatish avvalgi ish oyi uchun maoshni to'lamaslikka asos bo'la olmaydi.

TK PΦ ning 84.1-moddasi va 140-moddasi asosida, mehnat shartnomasi bekor qilinganidan keyin, ish beruvchi,

xodimga ishdan bo'shatilgan kuni, yoki qarzni to'lash talabini olgan kunning ertasiga barcha pullarni to'lashi lozim. Xodimni ishdan bo'shatish uchun, majburiy ravishda ishdan bo'shatish to'g'risidagi qaror chiqariladi. Xodimga ishdan bo'shatish to'g'risidagi buyrug'ning nusxasini va mehnat daftarchasiga ishdan bo'shatish yozuvini yozib, qaytarib beriladi.

### Ish haqi kechiktirilganda, mehnat huquqlarini himoya qilish

TK PΦ ning 142-moddasi, 2-bandiga binoan, ish haqingiz 15 kundan ortiq vaqtga kechiktirilgan taqdirda, boshchingizni yozma ravishda xabardor qilinib, ishni to'xtatib qo'yishga haqlidirsiz.

TK PΦ ning 142-moddasi binoan, boshchingiz yoki ishxonangiz vakillari ish haqingizni kechiktirilishi yoki boshqa xuquqlaringizni buzilishiga mas'uldirlar.

### Noqonuniy jarimalardan himoyalani

TK PΦ ning 192-moddasi asosida ish beruvchi tomon, majburiyatlarinigizni bajarmaganingiz uchun sizga tazyiq, ta'qib yoki belgilangan tartibda ishdan bo'shatish huquqi ega. Mehnat majburiyatlarinigizni bajarmaganingiz uchun jarimalar noqonuniydir!

### O'z-o'zini himoya qilish

Siz o'z huquqlaringizni mustaqil ravishda himoya qilish huquqiga egasiz. TK PΦ ning 380-moddasiga ko'ra, ishxonangizni siz o'z mehnat huquqlaringizni himoya qilish vaqtingizda, ishdan xaydashga haqlari yo'q.

TK PΦ ning 62-moddasi asosida, siz boshlig'ingizdan ishingizga ta'luqli hujjatlarni (mehnat shartnomasi, buyruq, qo'shimcha shartnomalar, to'lov varaqalari va boshqalarni) talab qilish huquqiga egasiz. Boshlig'ingiz ushbu nusxalarni, siz arizani topshirganingizdan keyin 3 ish kuni ichida berishga majburdir.

### Kasaba uyushmasi (profsoyuz) ning yordami

Har bir ishchi kasaba uyushmasiga a'zo bo'lish va o'z mehnat huquqlarini va qonuniy manfaatlarini himoya qilishda, uning ko'magidan foydalanishi mumkin.